

Date: 17th February-2025

ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARGA O'QUV AMALIYOTLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'TISH

Maxmudova Nargiza

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tanlangan kasblari bo'yicha o'qish muddati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tegishli mutaxassisliklari va kasblari bo'yicha imkoniyatlari cheklangan shaxslar o'qishi uchun zarur va yetarli o'quv yuklamasining umumiy hajmi hisobga olingan holda belgilanadi. Bunda tanlangan kasblarning soni va murakkabligi e'tiborga olinadi. Ushbu maqolada zaif eshituvchi o'quvchilarga o'quv amaliyotlarini innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tishning samarali usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: zaif eshituvchi o'quvchilar, kasb, ta'lim, innovatsiya, amaliyot, usul, metod, nazariya, interfaol ta'lim.

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faoliyatini o'zgartirishni talab etadi. Bugun o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishi va boshqarishi talab etilmoqda.

Bu borada o'qituvchi faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish asosiy vazifa hisoblanadi. O'qituvchining innovatsion faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonida paydo bo'ladigan muammolarni tezda aniqlab olishga undaydi. Muammolarni aniqlash va tezda bartaraf etish imkoniyatlarini qidirish bu tamomila yangi innovatsion madaniyatni shakllantiradi.

Bugun ta'lim tizimidagi pedagogik innovatsiya - pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi.

Intellektual faollikni oshirishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi. So'ngi yillarda ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soxa vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi bilan chambarchas bog'liq.

Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarini erta tashxis olish, muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim



Date: 17th February-2025

muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Zaif eshituvchilar uchun ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'quvchilar egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining ma'lum bir hajmi va tizimi tushuniladi. Ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'rganilayotgan fanlarning ro'yhati xar bir o'quv amaliyoti va o'quv fani bo'yicha material hajmini aniqlash o'quv dasturlarini va darsliklardan ortiqchalarini chiqarib tashlash, asosiy tushuncha va g'oyalarni aniq yoritib berish, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarning eng muvofiq hajmini belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklarda yoritilgan. Zaif eshituvchilar zamonaviy umumta'lim maskanlari umumiy pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi. Ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarlik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqliligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

Nazariyani amaliyot bilan bog'lash talabalarni amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalar bilimining ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi:

- o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarida;
- o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini;
- o'qish faoliyatini ijodiy harakterda bo'lishini;
- bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol ishlab chiqarish ta'limi ustasiga ta'lluqlidir. U talaba oldida turgan vazifalarni anik qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak.

O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli talabalarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallashda onglilik mavjud bulsa, talabalarda ijodiy faollik shakllanishi ijobiy samara beradi.

Ko'rgazmalilik qoidalaridan foydalanishning asosiy vazifasi talabalarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil ishlab chiqarish amaliyotini bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ishlab chiqarish amaliyoti davomida doskadagi rasm, model, ishlab chiqarish bilan bog'liq videofilmlar, texnologik xarita va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu narsalar tafakkur va kuzatuvchanlikning faollashishiga yordam beradi, o'rganilayotgan mavzularga qiziqishini oshiradi. Ularni qiziqarli ishlar olib borishga o'rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning mustaxkamligini ta'minlaydi.



Date: 17th February-2025

Amaliy ishlar – o‘quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va mustaxkamlashga, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi aloqani o‘rnatishga qaratiladi. Amaliy ishlar bilim va malakalarni shakllantirishda zaif eshituvchilarning mustaqilligini va bilish faolligini rivojlantirishda, ularni xayot va mexnat faoliyatiga tayyorlashda xal kiluvchi rol uynaydi.

Inson tomonidan sezgilar orkali kabul kilinayotgan barcha narsalarni idrok etish dikkatsiz amalga oshmaydi. Shu bois, talabalarning ukuv amaliyotlarini tuda, keng u^{zlashti}R^{ishla}R^{il}A ma‘lumotlarni tushunishlarida dikkat jarayoni uta muximdir. Talabalar dikkatini tuplash, yigish, tarbiyalashda turli - tuman kurgazmali kurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Ishlab chiqarish amaliyotiga shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni joriy etish va uni amalga oshirish klaster, B\B\B\ usuli kabi interfaol ta‘lim usullari misolida ko‘rsatib berish jarayonida talabalarda o‘qishga nisbatan katta qiziqish, faollikni, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari an‘anaviy ta‘limdan ko‘ra yuqori samaraga erishish mumkin.

Ma‘lumki, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan xisoblangan klaster (fikrlarning tarmoqlanishi)-pedagogik strategiya bo‘lib, u biron mavzuni o‘rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirishda hamda kengaytirishda asqotadi.

Ishlab chiqarish ta‘limi ustaxonalarini zamonaviy texnikalar bilan boyitib, g‘alabalarda, tez taraqqiy qilib borayotgan ilm-fan va ilgor texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlashlarini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni o‘z oldimizga muxim vazifa qilib belgilab olishimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga va ta‘limga bo‘lgan e‘tiboriga tayanadi. Zero, eski ta‘lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bunda esa innovatsion texnologiya va jarayonlarining o‘mi asosiy rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.N. Mamarajabova “Surdopedagogika”¹. Toshkent-2014.
2. J.I.P. Muminova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,
3. M.I. Xamidova “Maxsus psixologiya”. Toshkent-2013.
4. P.M. Pulatova, L.Sh. Nurmuxammedova “Maxsus pedagogika”.
5. P.U. Shomaxmudova “Maxsus va inklyuziv ta‘lim”. Toshkent--2011.
6. P.Po‘latova, L.Nurmuxamedova, Sh. Amirsaidova. Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar, 2014.



Date: 17th February-2025

7. L.Mo‘minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: Fan va texnologiyalar. 2013 y.

8. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: OO‘MTV, 2007

